



## YOSHLARNI JAMIyatda TUTGAN O'RNI VA IJTIMOIY FAOLLIGI

**Murodova Bibisora**

*Termiz davlat pedagogika instituti*

*Tarix fakulteti*

*Milliy g'oya va manaviyat asoslari yo'nalishi  
birinchi kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada mamlakat taraqqiyotini ta'minlash, jamiyatning ertangi kuni, taraqqiyoti, gullab yashnashida yosh-avlodning masuliyati hamda ijtimoiy-siyosiy, mafkuraviy, ma'naviy faolligini oshirish va bu borada olib borilayotgan islohotlar haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** yoshlar, siyosat, masuliyat, taraqqiyot, oila, jamiyat, islohotlar, ijtimoiy faollilik.

Bugungi kunda, fan-texnika rivojlanishi, axborot texnologiyalarining beqiyos darajada taraqqiy etishini tezlashtirib, hayotimizga shiddat bilan kirib kelgan globallashuv jarayonlari o'z ortidan bazi salbiy oqibatlarni keltirib chiqarmoqda.

Murakkab bir davrda "axborot xuruji" o'zining salbiy davrida yoshlar manaviyatini asrash, yosh avlodning qalbi va ongini turli zararli g'oyalar tasiridan saqlash hamda mafkuraviy immunitetini mustahkamlash masalalariga alohida etibor qaratish jamiyatning har bir azosining vazifasi bo'lmg'i lozim.

Mustaqillik yillarda mamlakatimizda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ma'naviy yetuk avlodni voyaga yetkazish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida muayyan ishlar amalga oshirilsada, sohadagi vaziyat va amalga oshirilgan tadbirlar tahlili yoshlarning keng qatlamlariga daxldor bo'lgan dolzarb masalalar, ayniqsa, uyushmagan yoshlarning hayotda o'z o'rnini topishi uchun munosib sharoit yaratish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, kasbga yo'naltirish va bandligini ta'minlash, tashabbuslarini rag'batlantirish borasidagi ishlar talab darajasida tashkil etilmaganligini hayotning o'zi ko'rsatib turibdi.

Shu sababli, mazkur sohadagi faoliyatni tubdan takomillashtirish maqsadida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi<sup>1</sup> farmonida har jahada yoshlar faolligini oshirish vazifalari belgilandi. Unda yoshlarning zamonaviy kasb-hunarlarini puxta egallashi, ularning bandligini ta'minlash, ilmiy va badiiy kitoblarni o'qishga bo'lgan qiziqishini yanada oshirish, axborot texnologiyalaridan foydalanish, "ommaviy madaniyat" va boshqa yot g'oyalarga qarshi mustahkam immunitetni shakllantirish, yoshlarni ijodiy to'garaklar va turli, jumladan, xorijiy tillarni o'rgatish o'quv kurslariga jalb etish, xalq mafaatlariga

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyuldagli "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston Yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi 5106-sun farmon.



sadoqat bilan xizmat qiladigan bilimli va fidoyi yosh rahbar kadrlarni tarbiyalash kabi masalalar ochib berildi.

Buyuk yunon tarixchisi Gerodot o'zining Sharqqa qilgan safarlari chog'ida Misr ehromlaridagi bir bitik uni ajablantirgan: "Yoshlarning tarbiyasi buzilib ketyapti. Nima qilmoq kerak?!"<sup>2</sup> Tarixchi ushbu yozuvni o'qiganiga ham ikki ming yildan oshib ketdi. Yozuvning bitilgani sanasi to'g'risida aniq ma'lumot keltirilmagan. Bundan ko'rinish turibdiki yoshlar masalasi hamisha o'z dolzarbligini yuqotmagan, bu masalaga turli davrlarda har xil munosabat bildirib kelingan.

Ulug' marifatparvar alloma Mahmudxo'ja Behbudiy yoshlarga murojaatnomasida, jumladan, bunday yozadi: "...Ushbu taraqqiy etgan zamonda ilmsiz, marifatsiz, quruq tasavvur bilan yashab bulmaydi. Hozirgi zamonaviy taraqqiyot va rivojlanish shunday kuchli bo'lmoqdaki, ozgina fursat o'tar-o'tmas quruq va chirigan taassublarimizni ildizi bilan qo'porib tashlaydi. Shuning uchun barcha yoshlарimiz bu borada bir narsaga tayanishlari mumkin. Bu narsa ilmu marifatdir".<sup>3</sup> degan ajoyib ibratli so'zni aytib ketganlar.

Yoshlar ongini chalg'itish uchun katta kurashlar kechayotgan globallashuv davrida yuksak manaviyat, odob-axloq masalasiga etiborni kuchaytirish dolzarb vazifadir. Ushbu jarayonda, ayniqsa, yoshlarni, etibordan chetda qoldirmaslik lozim. Vaqt, imkoniyat boy berilsa, keyin kech bo'lishi aniq. Buyuk marifat parvar bobomiz Abdurauf Fitrat aytganlar Vatan bizning valinemamatimiz va murabbiyimizdir, xar bir valinemat va murabbiya xizmat kilish lozim, bas, Vatanga xizmat burchdir deganlar.

Yoshlarda internetda olinayotgan axborotlarga tanqidiy yondashish va uning ishonchli manbalar asosida o'z dunyo qarashini kengaytirish va uning zararli malumotlarni inkor eta bilish idrokini xosil qilish g'oyat muhim. Har bir yosh malum bir ko'nikma va bilimlarga ega bo'lishi, dunyoda kechayotgan siyosiy va iqtisodiy jarayonlarga befarq bo'lmasligi lozim. Bu ishni avvalo, o'zining taqdiri, kelajagi oldidagi masuliyati deb bilsa, ikkinchidan, Vatani va xalqi oldidagi burchi sifatida tushunmog'i lozim.

Shuning uchun ham, yeng avvalo, yoshlar bugungi kunda yurtimizda barqaror bo'lgan tinchlik va osoyishtalikning qadriga yetib, bu nematni ko'z qorachig'iday asrash maksadida, tinmay o'qish va izlanishda bo'lishlari kerak. Yoshlardan doim ogohlilik va ziyraklik talab etiladi. Buyuk marifatparvar bobomiz Yusuf Xos Hojib aytganlar: Yoshlikni qadriga yeting, u bir kuni shaksiz sizdan ketadi, uni qanchalik qattiq tutmang, bir kuni sizdan qochadi» deb aytganlar. Odam bolasi dunyoga shunchaki emas, balki hazrat Alisher Navoiy aytganlaridek, komillikka, ezgu niyatlarga yetishish, atrofdagi odamlar, yaqinlari, dustlari tasirida kamolot pillapoyalarini zabt etish uchun keladi. Manan boy, jismonan sog'lom va axloqan pok bo'lib borgani sari uning oilasi, manzil – makoni ham guzallashib, hayoti fayzli, mazmunli kechadi.

<sup>2</sup> A.Miravaz o'g'li "Tarbiyaning oltin kaliti yoxud yuldag'i belgilar" kitobi. B-3.

<sup>3</sup> "Oyna" jurnali, 1914-yil 41-son.



Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bugungi kunda eng muhim vazifa o'sib kelayotgan yosh avlodni rostgo'ylik, xayo, kattalarga hurmat, mexnatsevarlik kabi diniy-milliy qadriyatlar asosida tarbyalash, ular qalbida o'z xalki, Vataniga mexr-sadoqat tuyg'usini kuchaytirish, ularni har hil buzg'unchi kuchlarning axborot xurujlaridan ogoh etish, munosib himoya qilishdan iboratdir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyuldagagi "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston Yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi 5106-son farmon
2. Yahyo Muhammad Amin, "Iternetdagi tahdidlardan himoya asari" Toshkent Movarounnahr, 2016.
3. Is'hoqjon Muhammadjon O'g'li, "Talim va Tarbiya asari" Toshkent: Hilol Nashr 2018.
4. Kel Nyuport, "Diqqat asari" Ingiliz tilidan Sojida Samandarovna tarjimasi, Toshkent: "Offset-print" MChJ, "Nihol nashiryoti, 2020.
5. Akmal Miravaz o'g'li, Tarbiyaning oltin kaliti yohud yo'ltagi belgilar" Toshkent: Movarounnahr, 2020.